

MUKOVITSIDOV BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA BRONXOPULMONAL ASORATLAR VA ZAMONAVIY DAVOLASH TAKTIKALARI (DORNAZA ALFA MISOLIDA)

Sharipov Mirfayz Shuxratovich

Buxoro davlat tibbiyot institute

Email: mirfayzsharipov03@gmail.com

Annotatsiya

Mukovitsidoz (cystic fibrosis) — autosom-retsessiv irsiy kasallik bo'lib, asosan bronxopulmonal tizimning surunkali va progressiv shikastlanishi bilan namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada mukovitsidoz bilan og'rigan bemorlarda uchraydigan asosiy bronxopulmonal asoratlar, ularning patogenetik mexanizmlari hamda zamonaviy davolash taktikalari chuqur tahlil qilingan. Alohida e'tibor dornaza alfa preparatining mukolitik xususiyatlari, ta'sir mexanizmi, klinik samaradorligi va xalqaro davolash protokollaridagi o'rniga qaratilgan.

Kirish

Mukovitsidoz CFTR (Cystic Fibrosis Transmembrane Conductance Regulator) genidagi mutatsiyalar natijasida yuzaga keladigan irsiy kasallik bo'lib, epitelial hujayralarda xlor ionlari transportining buzilishi bilan xarakterlanadi. Natijada nafas yo'llarida yopishqoq va quyuq sekret to'planib, surunkali yallig'lanish va qaytalanuvchi infeksiyalar rivojlanadi.

Bronxopulmonal asoratlar mukovitsidoz bilan og'rigan bemorlarda o'lim va nogironlikning asosiy sababi hisoblanadi. Shu sababli kasallikni erta aniqlash va

zamonaviy, dalillarga asoslangan davolash taktikasini qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqot tizimli adabiyotlar sharhi shaklida olib borildi. 2010–2024 yillar oralig'ida Scopus, PubMed, Web of Science bazalarida chop etilgan ilmiy maqolalar, xalqaro klinik qo'llanmalar (ERS, Cystic Fibrosis Foundation) tahlil qilindi.

Natijalar

Mukovitsidozda bronxopulmonal asoratlarning patogenezi yopishqoq balg'am, mukosilyar klirensning pasayishi va surunkali bakterial kolonizatsiya asosiy o'rin tutadi. Eng ko'p uchraydigan asoratlarning surunkali bronxit, bronxoektaziya, pnevmoniya va nafas yetishmovchiligi.

Pseudomonas aeruginosa bilan surunkali infeksiyalanish o'pka funksiyasining tez pasayishiga olib kelib, FEV1 ko'rsatkichlarining yiliga 2–3% ga kamayishiga sabab bo'ladi.

Davolash taktikasida dornaza alfa o'rni

Dornaza alfa — rekombinant inson DNaza I fermenti bo'lib, balg'am tarkibidagi ekstrasellyulyar DNKni parchalash orqali sekretning yopishqoqligini kamaytiradi. Mukovitsidozda neytrofillarning parchalanishi natijasida balg'amda DNK miqdori keskin oshadi va bu nafas yo'llarining obturatsiyasiga olib keladi. Klinik tadqiqotlar dornaza alfa inhalatsiyasi o'pka ventilyatsiyasini yaxshilashi, FEV1 ko'rsatkichlarini 5–10% ga oshirishi va infeksiyon zo'rayishlar sonini kamaytirishini ko'rsatgan. Zamonaviy davolash strategiyalari mukovitsidozda bronxopulmonal asoratlarni nazorat qilishga qaratilgan kompleks yondashuvni talab etadi. Dornaza alfa mukolitik terapiyaning asosiy komponenti sifatida xalqaro klinik protokollarda tavsiya

etilgan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda dornaza alfa bilan davolashni keng joriy etish bemorlarning hayot sifati va umr davomiyligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Mukovitsidoz bilan ogʻrigan bemorlarda bronxopulmonal asoratlarni kasallik prognozini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Dornaza alfa preparatini kompleks davolash tarkibiga kiritish klinik natijalarni sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Elborn J.S. (2016). Cystic fibrosis. The Lancet.
2. Ratjen F., Döring G. (2003). Cystic fibrosis. The Lancet.
3. Konstan M.W. et al. (2014). Dornase alfa therapy. Chest.
4. Flume P.A. et al. (2019). CF pulmonary guidelines. AJRCCM.